

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024/3-SON
ILOVA TO'RPLAM

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

X.M.Shermatova, G.A.Karaboyeva	
Zamonaviy axborot texnologiyalarining yosh avlod tarbiyasiga psixologik ta'siri tahlili.....	141
I.T.Tojiboev, Z.X.Komilova	
Professional ta'lif muassasalarida dasturlash tillarini o'qitishning zamonaviy usullari	145
Z.X.Mamatova	
Zamonaviy informatika mashg'ulotlariga qo'yilayotgan metodik talablarni takomillashtirishning tashkiliy-pedagogik omillari	151
A.Y.Axmedov, Z.F.Sherqo'ziyeva	
Ta'lif samaradorligini oshirishda innovatsion va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish	156
B.B.Djalalov	
Interfaol o'qitish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarda innovatsion kompetentlikni shakllantirishning pedagogik tizimi.....	160
B.S.Siddiqov	
O'quvchilarda aksiologik kompetensiyalarni rivojlantirish mexanizmlari.....	165
D.A.Yo'idosheva	
Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning kreativ kompetentligini rivojlantirish zamonav iy pedagogikada zaruriyat sifatida	170
I.I.Tuychiyeva, Z.Axunova	
Yuqori sinf o'quvchilarining ma'naviy kompitentligini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati....	174
J.U.Tojiboyev	
Talabalarning badiiy-estetik kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi	178
M.O.Karimova, X.X.Tojiyev	
Bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lif o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligini rivojlantirish muammosi	183
Н.А.Абдуллаева	
Педагогические проблемы формирования исследовательских компетенций будущих учителей.....	190
N.S.Temirov	
Oliy o'quv yurtida mustaqil ta'lif orqali talabalar bilimini oshirishning zamonaviy yondashuvlari	194
O.F.Hamrayeva	
Talabalarda irodaviy sifatlarni shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari.....	199
Sh.O.Aripov	
Xorij olimlarining o'g'il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlash jarayonida gender yondashuvni tadbiq etishga doir fikirlari	204
Sh.N.Mehmonaliyev	
Koshifiyning adabiy-pedagogik merosi va uning yoshlarning ma'naviy ahloqiy qadriyatlar tizimiga ta'siri.....	208
U.Q.Maqsudov	
Modernizatsiyalash sharoitlarida talabalarning kasbiy dunyoqarashni shakllantirish imkoniyatlari.....	212
O.N.Fozilova	
Maktabgacha ta'lifda xorijiy mamlakatlar tajribasi (Buyuk Britaniya)	217
M.E.Xallokova	
Bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda o'zin texnologiyasining faollashtiruvchi omillari.....	222
I.S.Soliyev	
Maktabgacha ta'lif tarbiyachilarining axborot kompetentligini rivojlantirishning tashkiliy omillari	227
F.O.'O'rinova	
Bo'lajak o'qituvchilarda intellektual kompetentlikni rivojlantirish zarurati va ijtimoiy ahamiyati	232
R.Y.O'rino	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining intellektual faolligini oshirishning integrativ texnologiyalari.....	238



УО'К: 378:373.2:37,01

**BO'LAJAK TARBIYACHILARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA O 'YIN
TEXNOLOGIYASINING FAOLLASHTIRUVCHI OMILLARI**

**АКТИВИЗИРУЮЩИЕ ФАКТОРЫ ИГРОВОЙ ТЕХНОЛОГИИ В ПОДГОТОВКЕ
БУДУЩИХ ВОСПИТАТЕЛЕЙ К ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ**

**ACTIVATING FACTORS OF GAME TECHNOLOGY IN PREPARING FUTURE
EDUCATORS FOR PROFESSIONAL ACTIVITIES**

Xallockova Maksudaxon Ergashevna 

Farg'ona davlat universiteti, Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v/b dotsent

Annotatsiya

Maqolada oly ta'lif muassasalarida tafsil oluvchi bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda o 'yin texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari va ustuvor jihatlari ilmiy yondashuvlar asosida o'rganilgan. Mavzuni tanlashdan maqsad maktabgacha ta'lif yo'nalishi talabalarini kasbiy faoliyatga samarali tayyorlash orqali ularni kelajakda bolalarga sifatli ta'lifni tashkil eta olish qobilyatlari rivojlantirishdir. Maktabgacha yoshdag'i bolaning yetakchi faoliyati o 'yin sifatida qaralib, bo'lajak tarbiyachilarda mazkur kompetensiyani rivojlantirish orqali kelgusida bolalar faoliyatini tashkil etish bo'yicha samarali yondashuvlarni qo'llay olish ko'nikmasini shakllantirishga e'tibor qaratiladi. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda o 'yin texnologiyalaridan foydalanish samarali natija ko'ssatadi. O'yinli ta'lif qiziqarli va aqliy zo'rqihsiz faoliyat sanaladi. Oly ta'lif muassasalarida ta'lifning ushbu yondashuviga kam e'tibor berilishini nazarda tutgan holda maktabgacha ta'lif yo'nalishlari talabralari o'quv tizimida bu yo'nalishdan foydalanish mutaxassislik mazmunini tushunishda eng maqbul yo'l sanaladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'ssatmoqdaki, dars (ma'ruba, amaliy, seminar) mashg'ulotlarida o'yinli texnologiyalardan foydalanish bo'lajak maktabgacha ta'lif tarbiyachisini kasbiy faoliyatga to'laqonli tayyorlash imkonini bera oladi. Shuning uchun maqolada xulosa o'mida oly ta'lifda mashg'ulotlarni o'yinli texnologiyalari asosida tashkil qilish zaruriyat ustuvor vazifa sifatida beriladi.

Аннотация

В статье рассмотрены преимущества и приоритеты использования игровых технологий при подготовке будущих педагогов, обучающихся в высших учебных заведениях, к профессиональной деятельности на основе научных подходов. Целью выбора темы является развитие умений учащихся дошкольного образовательного направления эффективно готовить их к профессиональной деятельности, уметь организовать качественное образование детей в будущем. Ведущая деятельность дошкольника рассматривается как игра и направлена на формирование у будущих воспитателей умения применять эффективные подходы к организации дальнейшей деятельности детей посредством развития данной компетенции. Эффективный результат показывает использование игровых технологий при выполнении поставленных задач. Игровое обучение считается увлекательным и не напрягающим умственным занятием. Ввиду того, что этому подходу к обучению в высших учебных заведениях уделяется мало внимания, использование этого направления в системе образования учащихся дошкольных образовательных направлений является оптимальным способом понимания содержания специальности. Результаты исследования показывают, что использование игровых технологий в урочной (лекционной, практической, семинарной) деятельности может дать возможность полноценно подготовить будущего воспитателя дошкольного образования к профессиональной деятельности. Поэтому вместо заключения в статье в качестве приоритетной задачи дается необходимость организации обучения в высшем образовании на основе игровых технологий.

Abstract

The article explores the benefits and priorities of using game technologies in the preparation of future educators studying in higher education institutions for professional activities on the basis of scientific approaches. The purpose of choosing a topic is to develop the ability of students of the preschool educational direction to organize quality education for children in the future by effectively preparing them for professional activities. The leading activity of a preschool child is considered as a game, focusing on the formation of the skills of future educators to be able to apply effective approaches to the organization of children's activities in the future through the development of this competence. The use of gaming technologies in the implementation of these tasks shows an effective result. Playful education is considered an activity that is fun and without mental strain. The use of this direction in the educational system of students of preschool educational directions, provided that little attention is paid to this approach of education in higher educational institutions, is considered the most optimal way in understanding the content of the specialty. The results of the study show that the use of gaming technologies in lesson (lecture, practical, seminar) classes can make it possible to fully prepare the future

PEDAGOGIKA

preschool educator for professional activities. Therefore, instead of the conclusion in the article, the need to organize training in higher education on the basis of Game Technologies is given as a priority.

Kalit so'zlar: O'yinli faoliyatlar, texnologiya, tadbirkorlik o'yinlari, imitatsion, operatsion, sotsiodramma va didaktik o'yinlar, evristik yondashuv

Ключевые слова: Игровая деятельность, технология, предпринимательские игры, имитационные, операционные, социодрама и дидактические игры, эвристический подход

Key words: Playful activities, technology, entrepreneurial games, imitation, operational, sociodrama and didactic games, heuristic approach

KIRISH

Maktabgacha ta'lif uzluksiz ta'lif tizimining birinchi bo'g'ini sanalganligi bois oliy ma'lumotli mutaxassislar yetishmovchiligi yuqori darajalarni ko'rsatmoqda. Shuning uchun mamalakatimizda so'nggi yillarda ta'lifning mazkur bo'g'ini uchun yetuk kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifalardan biriga aylangan. Oliy ta'lif muassasalarida tahlil olayotgan bo'lajak tarbiyachilarini o'z sohasining chinakam bilimdoniga aylantirish oliy ta'lif professor-o'qituvchilari oldiga muhim va murakkab mas'uliyatni yuklaydi.

Maktabgacha davr bolalar uchun o'yinli faoliyatlar davri bo'lganligi sababli tarbiyachi-pedagoglar bolalarning o'yinli ta'limi faoliyatlarini tashkil etish, uning yoshta bog'liq xususiyatlarini hisobga olish va umuman o'yin pedagogikasidan yaxshi xabardor bo'lishliklari talab etiladi. Bo'lajak tarbiyachilarini o'yinli ta'limi faoliyatga tayyorlashda talabalar o'quv faoliyatiga o'yili texnologiyalarni joriy etish bu borada to'g'ri yondashuv hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O'yin inson faoliyatining mehnat va o'quv turlari bilan bir qatorda turadi va mavjudlikning muhim sharti hisoblanadi.

Ta'rifi: o'yin-bu ijtimoiy tajribani o'zlashtirishga va yaratishga qaratilgan vaziyatlar sharoitidagi faoliyat turi bo'lib, hatti-harakat ustidan o'zini o'zi boshqarish yuzaga keladi va takomillashadi(Selevko G.K.). Jarayon sifatida o'yin tuzilmasi G.K.Selevko ta'birlacha quyidagilarni qamrab oladi:

- o'ynash uchun olingen rollar;
- bu rollarni ijro etish vositasi bo'lgan o'yin harakatlari;
- predmetlarni, ya'ni haqiqiy narsalarni shartli, o'yin narsalari o'rnida qo'llash;
- o'yinda ishtirok etuvchilarning real o'zaro munosabatlari;
- (o'yinda shartli ravishda yaratilgan syujet (mavhum) — ijo sohasi

O'yin-psixogen xulq shakli, ya'ni shaxs tabiatidan kelib chiqadigan ichki mavjud bo'lgan fe'l-atvor ko'rinishidir(D.N.Uznadze).

O'yin-bolaning "ichki ijtimoiylashuvi" fazosi, ijtimoiy ustaganovkalarni egallash vositasi(L.G.Vigotskiy).

O'yin-tasavvurlashda shaxs erkinligi, "amalga oshmaydigan qiziqishlarni xayoliy joriy etish"(A.N.Leontyev).

O'yinda faqat o'z xususiy va ichki mazmuni bo'yicha indvid uchun ahamiyatli maqsad kasb etgan harakat amalga oshadi.O'yin faoliyatining asosiy o'ziga xosligi ham ana shunda uning asosiy jozibaligi ham ana shunda (S.L.Rubinshteyn).

Didaktik o'yin-bu mohiyatan o'zida muayyan motivatsiyani, o'quvchilarning biluv faoliyati tuzilmasini va o'zlashtirishning boshqarish tizimini egallagan yaxlit didaktik jarayondir (V.P.Bespalko)

O'yinli texnologiyalardan foydalanishning asosini talabalarning faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyati tashkil yetadi. O'yin olimlar tadqiqotlariga ko'ra mehnat va o'qish bilan birgalikda faoliyatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi. [1]

MUHOKAMALAR

Pedagogik o'yinlar o'yin ijodiyligi bilan ajralib turadi. U mumkin qadar boy, faol xarakteriga - «ijod maydoni»ga ega bo'ladi. O'yin uchun hissiy ko'tarinkilik xosdir. U o'zaro kurash, musobaqalashish, raqobat shaklida namoyon bo'ladi.

O'yinning o'yin mazmunini aks ettiruvchi, uni rivojlanirishning mantiqiy va vaqtinchalikligini ko'zda tutgan bevosita tegishli va unga nisbiy aloqador qoidalari bo'lishini ko'rsatadilar.[2]

O'yindan tushunchalar, mavzu va hatto o'quv predmeti bo'limini o'zlashtirishda o'qitish metodi va mustaqil texnologiya sifatida foydalaniladi.

O'yin bilish va uning bir qismi (kirish, mustahkamlash, mashq, nazorat) tarzida tashkil etiladi.

O'yinlar turli maqsadlarga yo'naltirilgan bo'ladi. Ular didaktik, tarbiyaviy, faoliyatni rivojlantiruvchi va ijtimoiylashuv maqsadlarida qo'llaniladi.

O'yinning didaktik maqsadi bilimlar doirasi, bilish faoliyati, amaliy faoliyatda bilim, malaka va ko'nikmalarni qo'llash, umumta'llim malaka va ko'nikmalarini rivojlantirish, mehnat ko'nikmalarini rivojlantirishni kengaytirishga qaratilgan bo'ladi.

O'yinning tarbiyaviy maqsadi mustaqillik, irodani tarbiyalash, muayyan yondashuvlar, nuqtai nazarlar, ma'naviy, estetik va dunyoqarashni shakllantirishdagi hamkorlikni, kollektivizmni, jamoaga kirishib keta olishni, kommunikativlikni tarbiyalashga qaratilgan bo'ladi.

Faoliyatni rivojlantiruvchi o'yinlar diqqat, xotira, nutq, tafakkur, qiyoslash malakasi, chog'ishtirish, o'xshashini topish, faraz, xayol, ijodiy qobiliyat, empatiya, refleksiya, optimal yechimni topa olish, o'quv faoliyatmi motivatsiyalashni rivojlantirishga qaratilgan bo'ladi.

Ijtimoiylashuv o'yinlari jamiyatning me'yorlari va qadriyatlariga jalb qilinish, muhit sharoitlariga ko'nikish, ehtiroslarni nazorat qilish, o'z-o'zini boshqarish, muloqotga o'rgatish hamda psixoterapiyani nazarda tutadi.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda pedagogik o'yin degan tushuncha mavjud. Pedagogik jarayonni tashkil etishning bir qator metodlari va usullari hamda turli shakldagi pedagogik o'yinlar «o'yinli pedagogik texnologiyalar»ni tashkil etadi.

Pedagogik o'yinda ta'limning pedagogik maqsadlari aniq qilib qo'yiladi. Pedagogik o'yinlar asosida talabalarni o'quv faoliyatiga yo'llovchi o'yinli usullar va vaziyatlarni vujudga keltirish yotadi.

Pedagogik o'yinlar quyidagi asosiy yo'nalishlarda bo'ladi:

- didaktik maqsad o'yinli vazifa shaklida qo'yiladi;
- o'quv faoliyati o'yin qoidalariga bo'ysunadi;
- o'quv materialidan o'yin vositasi sifatida foydalaniladi;
- o'quv jarayoniga didaktik vazifa o'yinga aylantirilgan tarzda musobaqalashish unsurlari kiritiladi;
- didaktik vazifaning muvaffaqiyatli bajarilishi o'yin natijalari bilan boglanadi.

Oliy ta'lim amaliyotida tadbirkorlik o'yinlariga alohida ahamiyat beriladi. Tadbirkorlik o'yinlari nazariyasi umuman boshqa o'yin faoliyati nazariyasi bilan bevosita bog'langan. Tadbirkorlik o'yini yangi texnologiya sifatida mohiyatan quyidagilarni bildiradi:

- ishlab chiqarish imitatson modeli sifatida taqdim etilgan o'quv material mazmunining izchilligi;
- o'yinli o'quv modelida kelgusidagi kasbiy faoliyati tarkibiy qismlarini yaratish;
- o'quv jarayoni tarzini bilimlarga ehtiyojlarni tug'dirish va ularni amalda qo'llashning real sharoitlariga yaqinlashtirish;
- o'zining ta'limiy va tarbiyaviy samaradorligi yig'indisi;
- o'yinni olib boruvchi o'qituvchining talabalar faoliyatini tashkil etish va boshqarishidan talabalarning o'z xatti-harakatlarini tashkil etish va boshqarishga o'tishini ta'minlashi.

Tadbirkorlik o'yinini tayyorlashning sotsial-psixologik muammolariga quyidagilar kiradi:

- ishtirokchilarni tanlash;
- rollarni taqsimlash;
- o'yin rahbarini ijtimoiy-psixologik jihatdan tayyorlash;
- ijtimoiy psixologiya bo'yicha umumnazariy bilimlarni egallash;
- nazariy bilimlarini amalda qo'llay olish;
- shaxsiy tayyorgarlik.

Tadbirkorlik o'yinlarining didaktik funksiyalariga quyidagilar kiradi:

- talabalarda aqliy faoliyat usullarining shakllanishi;
- bilimlarni mustahkamlash va qo'llash;
- o'quv jarayonida bo'lg'usi mutaxassisning faoliyati faqat o'rganish emas, balki uni bajarishga qaratilgan didaktik qoidalar ishlab chiqishdan iborat bo'lishi;
- talabalar o'quv-bilish faoliyatining bo'lg'usi kasbiy faoliyati, xarakteri va tuzilmasiga maksimal darajada yaqinlashib berishi.[3]

PEDAGOGIKA

Tadbirkorlik o'yinlarining bir necha modifikatsiyalari mavjud bo'lib, bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ulardan quyidagicha yondashuvlar asosida foydalanish mumkin:

Imitatsion o'yinlar. Bunday o'yinlardan MTTdag'i turli faoliyatlar mazmunini sahnalaشتirish (pedagogik kengash, kuzatuv kengash, ishlab chiqarish yig'ilishi) faoliyati andoza qilinadi. Voqealar, pedagoglarning biror faoliyati (ish rejani muhokama qilish, suhbatlar o'tkazish va b;), faoliyat holati va shartlari andoza qilib olinishi ham mumkin. Senariyda bunday o'yin tuzilmasi to'la yozib chiqiladi va imitasiya qilinadigan faoliyatlar va jarayonlar belgilanadi.

Operatsion (voqeiy) o'yinlar. Bunday o'yinlarda aniq o'ziga xos voqe-a-hodisaning bajarilishi mashq qilinadi. Operatsion o'yinlar ish jarayoniga xos modellashtiriladi.

Rol ijro etish o'yinlari. Unda konkret shaxsning xulqi, xatti-harakati, o'z vazifalari va majburiyatlarini bajarilish taktikasi mashq qilinadi.

Tadbirkorlik teatri. Bunda qandaydir vaziyat va undagi kishining xulqi o'ynaladi. Bu o'yinning asosiy vazifasi turli holatlarda mo'ljalni to'g'ri baholay olishni o'rgatish, o'zining xulqiga to'g'ri baho berish, boshqa kishilarning imkoniyatlarini baholay olish va ular bilan muloqot o'rnatna olishga o'rgatishdir.

Psixodrama va sotsiodrama. Bu ham o'ziga xos «teatr», lekin ijtimoiy psixologik maqsadni ko'zlaydi: Uning asosiy maqsadi jamoada vaziyatni his qila olish, boshqa kishining holatini o'zgartirish va unga baho berish, u bilan samarali muloqotga kirisha olishni shakllantirish hisoblanadi.

NATIJALAR

Oliy maktab muammolarining tadqiqotchilari quyidagi tadbirkorlik va evristik o'yin turlarini farqlaydilar:

1. Mutaxassislar orasida o'z vazifalarini, dasturlar va rollarini taqsim qilish asosidagi tadbirkorlik va evristik o'yinlar. Bunday mutaxassislar sirasiga quyidagilar kiradi:

- kelgusida ishlash kutilayotgan muassasada faol ijodiy ishlovchilarni va ularni ishlab chiqishda, aniqlash bilan band bo'lgan «vazifa tadqiqotchilari»;
- ijodiy guruhdagi barcha ishtirokchilarning faolligi sathida shu guruhning o'ziga xos katalizatorlik vazifasini bajaruvchi «faollashtiruvchilar»;
- ilmiy muammoning yechimiga yordam beradigan yo'llar va betakror fikrlar taklif qiluvchi «g'oyalalar ishlab chiquvchi» talabalar;
- g'oyalarning tug'ilishiga va ulaming boshqa ijodiy guruh a'zolari tomonidan idrok qilinishiga yordam beradigan «rezonator» (tarqatuvchi), talabalar;
- muammoni yechishning eng maqbul (optimal) variantini qayta ishlab chiqish va topish bilan band bo'lgan «nazoratchi» talabalar.

2. Ijodiy faoliyatning biror bosqichida muayyan strategiya, taktika va metodlarni qo'llash malakasini shakllantirishga qaratilgan tadbirkorlik va rol o'yinlari. Masalan, «Ilmiy-tadqiqot ishlarida ma'ruza, munozara» tarzidagi o'yin.

Bu o'yindagi asosiy rollar quyidagicha bo'lishi mumkin:

«Boshlovchilar» - o'qituvchi, ishlab chiqarish mutaxassis;

«Peshqadamlar» - muhokama qilinadigan muammoning muayyan masalasi bo'yicha vaziyatni tasavvur qila oladigan ma'ruzachilar;

«Bezakchilar» - peshqadamlarning ma'ruzalari va chiqishlarini ko'rgazmali tasavvur etishlari va tushuntirishlarini ta'minlovchi o'yin ishtirokchilari.

«Assistantlar» peshqadamlar yordamchilari bo'lib, ular peshqadamlarga va opponentlarga ko'rgazmali chiqishlariga yordam beruvchi o'yin ishtirokchilari.

«Rasmiy opponentlar» - peshqadamlarning maruzasi va boshqa materialar bo'yicha rasmiy tanqidiy ruhda chiqish qiluvchilar;

«Norasmiy opponentlar» - muammo bo'yicha guruh bo'lib yoki mustaqil ilmiy-tadqiqot olib boruvchi barcha boshqa talabalar - o'yin ishtirokchilari;

«Chalg'ituvchilar» - korxona yoki ilmiy muassasada qo'shimcha salbiy hodisa, faktlarni bayon qilish asosida o'yin ishtirokchilarining faolligiga sabab bo'ladigan savollar qo'yishi lozim bo'lgan o'yin ishtirokchilari. Korxona yoki ilmiy muassasa mutaxassisları, oliy o'quv yurti o'qituvchilari, ilmiy xodimlari, aspirant, talabalari bu «vazifa»ni bajarishlari mumkin.

«Registrarlar» - munozaralarni yozib oluvchi o'yin ishtirokchilari;

«Ekspertlar» - ma'ruza muhokamasidagi chiqishlar va yechimning guruh bo'lib qabul qilinishi bo'yicha obektiv baho beruvchi o'zin ishtirokchilari. Bu vazifada korxona va ilmiy muassasa mutaxassislari, oliy o'quv yurti o'qituvchilari va ilmiy xodimlari, aspirant va talabalar qatnashishlari mungkin. Bunday o'zinlarda quyidagi asosiy vazifalar hal qilinadi:

- bo'lg'usi mutaxassisni axborotlar almashishga o'rgatish;
- ularda o'z nuqtai nazarlarini asoslash va himoya qilish, boshqa kishilarning g'oyalariga kirib bora olish, guruh bo'lib yechim qabul qila olish malakasini shakllantirish.

O'zin-munozaralar muayyan muammo bo'yicha bahslar tashkil etilishini ko'zda tutadi. Bahs munozara borishining turli variantlari mavjud:

Evristik yondashuvda tomonlardan biri muammoning yechimi bo'yicha o'zining yondashuvini qabul qilishga urinmasdan ishontirish metodi, ichki tuyg'u, sog'lom aqldan foydalangan holda bahs ishtirokchilarini o'zining nuqtai nazariga og'dirib oladi.

Mantiqiy yondashuvdagi bahsga o'ta mustahkam mantiqiy tahlil va dalil-isbotlar xarakterli bo'lib, uning vositasida ishtirokchilar yakunni xulosalarga keladilar.

So'fiyona yondashuv. Unda tomonlardan biri o'z raqibini donolik qilib mag'lub qilishi ham mumkin.

Avtoritar yondashuv. Unda tomonlardan biri o'zining obro'sidan foydalanib, o'z nuqtai nazarini o'tkazishi mumkin.

Tanqidiy yondashuv. Bahs ishtirokchilaridan ba'zilari o'z raqibining faqat kamchiligi, kuchsiz o'rni va mavqeiga diqqatni jalb qiladi va, aksincha, raqibining fikridagi ijobiy unsurlarni ko'rishga intilmaydi va muammoning yechimi bo'yicha o'z takliflarini ham bera olmaydi.

Dogmatik yondashuv. Unda tomonlardan biri bahsni haqiqatni o'z manfaati uchun o'zining shaxsiy maqsadlariga muvofiq keladigan tomonga boshlab ketadi.

Pragmatik yondashuv. Ishtirok etuvchilardan biri va har bir tomon faqatgina haqiqatni o'rnatish uchungina bahs yuritmaydi, balki undan o'zlarining yashirin va bahs ishtirokchilariga ma'lum bo'lmagan amaliy manfaatlariga burish uchun foydalanadi.[4]

XULOSA

Maktabgacha ta'lif tashkilotlari uchun yetuk bilimga va kasbiy layoqatga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlash oliy ta'lif muassasalari oldida turgan muhim mas'uliyat hisoblanadi. Ushbu vazifani to'laqonli amalga oshirishda ta'lif texnologiyalardan moslashtirilgan variantlarda foydalanish orqali samarali natijalarga erishish mumkin. Mamlakatimiz prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan maktabgacha ta'lif tashkilotlari pedagoglari mavqeyi yuksak darajada oshirilib borilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 26.05.2023 yilda qabul qilingan "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-79-sonli farmoni mazkur islohotlarning yangi bosqichini boshlab berdi. Pedagoglarni kasbiy sertifikatlash asosida ularning doimiy kasbiy rivojlanishlarini ta'minlash va tizimda tub burilishlarni vujudga keltirish mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. "Ta'lifda innovatsion texnologiyalar". T.:2008. B-27,28.
2. Bondarevskaya E.V. Talabalarga yo'naltirilgan ta'lif nazariysi va amaliyoti. - Rostov-na-Donu: Rostov pedagogika universiteti nashriyoti, 2000.-352 p.
3. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. Qarshi: "Nasaf" 2000 yil. 76 b.
4. Lichnostno-orientirovannoe obuchenie// <http://pedsovet.org/component?option,corn mtree/task.vie wi mk/link id.4744/Itemid.1 18>.